QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Ped.11.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

ATAVULLAYEV BEHZOD BAXTIYOR O‘G‘LI

TALABALARNI JISMONIY TARBIYA DARSLARINI MODELLASHTIRISHGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

13.00.01 –Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Qarshi – 2026

UO‘K 796.0:378.147(021)

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on pedagogical sciences

Atavullayev Behzod Baxtiyor o‘g‘li
Talabalarni jismoniy tarbiya darslarini modellashtirishga tayyorlashning pedagogik mexanizmlari ……..3

Атавуллаев Бехзод Бахтиёр угли

Педагогические механизмы подготовки студентов к моделированию уроков физического воспитания……...23

Atavullayev Behzod Bakhtiyor ugli

Pedagogical mechanisms for preparing students to model physical education lessons……..46

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 51

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Ped.11.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

ATAVULLAYEV BEHZOD BAXTIYOR O‘G‘LI

TALABALARNI JISMONIY TARBIYA DARSLARINI MODELLASHTIRISHGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

13.00.01 –Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Qarshi – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Ped8148 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.qarshidu.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Nurullayeva Shaxlo Uktamovna** pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Rasmiy opponentlar:	**Aslonova Orzigul Primovna** pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
	Ro‘ziqulov Bunyod Baxtiyorovich pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
Yetakchi tashkilot:	**Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Ped.11.04 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “_____” _____ kuni soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 180103, Qarshi sh., Ko‘chabog‘ ko‘chasi, 17-uy. Tel.: (+99875) 225-34-13, faks: (+99875) 221-00-56, e-mail: qardu@mail.ru). Qarshi davlat universiteti, Pedagogika fakulteti, 217-xona.

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 180103, Qarshi sh., Ko‘chabog‘ ko‘chasi, 17-uy. Tel.: (+99875) 225-34-13).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “_____” _____ kuni tarqatildi
(2026 - yil “_____” _____dagi _____-raqamli reyestr bayonnomasi).

R.D. Shodiyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

I.B. Kamolov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, p.f.d. (DSc), professor

N.X.Oripova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi o‘rinbosari, p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo mamlakatlarida kechayotgan axborotlashuv jarayoni va virtual olamda amalga oshirilayotgan turli faoliyat turlari natijasida jamiyatni ma'naviy-axloqiy va jismonan sog'lomlashtirish muammosi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot nuqtai nazaridan dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Fan va texnologiyalarning taraqqiyoti insonlar orasida kam harakatlilik va jismoniy rivojlanishda o'ziga xos muammolar yuzaga kelishiga ham sabab bo'lib qolmoqda. Ushbu muammolar yechida amalga oshirilayotgan ijtimoiy tadbirlar va tadqiqotlarda aholini sog'lomlashtirish va yosh avlod sog'lom jismoniy rivojlanishini ta'minlash; jismoniy va intellektual adaptatsiyasini, jismoniy va psixologik holatini yaxshilash; yoshlarda mas'uliyat, tartib-intizom, ma'naviy-axloqiy salomatlik, sog'lom kommunikativ muhitni tarkib toptirish muammolariga ustuvor masalalar sifatida e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda sport va aholini sog'lomlashtirish masalalari jamiyatdagi murakkab ijtimoiy hodisa sifatida faqat aholining jismoniy salomatligini ta'minlash emas, balki muayyan faoliyat turi bilan shug'ullanishdagi tartib-intizom, meyorlarga amal qilish, ma'naviy salomatlik, sog'lom turmush tarzini tarkib toptirishga qaratilgan muhim ijtimoiy vazifalarni ham hal etishga qaratilgan. Zero, inson jismoniy sog'lomligi, ma'naviy va ruhiy salomatligi muhim ijtimoiy qadriyatdir.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan aholi salomatligini saqlashga doir amalga oshirilayotgan tadbirlar qatoriga inson salomatligi va jismoniy sog'lomligini asrash; jismoniy harakat va motorika konsepsiyasini tatbiq etish; sog'lom ijtimoiy hamjamiyat va ijtimoiy muhitni tarkib toptirish; sog'lom kommunikativ sifatlarni targ'ib qilish kabi masalalar o'z ifodasini topgan. Ushbu muammolarechimiga xalqaro miqyosda e'tibor qaratilgan. Jumladan, o'qituvchilarning jismoniy tarbiyani amalga oshirishga doir kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, sifatli jismoniy tarbiyani amalga oshirish bo'yicha YUNESKO tomonidan "Quality Physical education"[1] ("Sifatli jismoniy tarbiya") nomli qo'llanma ishlab chiqildi. Ushbu qo'llanmaga muvofiq yosh avlodni jismonan va ma'nan sog'lomlashtirish bo'yicha bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari tayyorgarligiga ham o'ziga xos talablar qo'yilgan. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining innovatsion texnologiyalar asosida takomillashtirish, raqamli transformatsiya talablariga muvofiqlashtirish jismoniy tarbiya o'qituvchilarining ham kompetensiyalarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Mamlakatimizda ham yosh avlodni jismoniy sog'lomlashtirish muammolariga davlat siyosatidagi ustuvor yo'nalish sifatida e'tibor qaratilgan. Bugungi kunda jismoniy tarbiya mutaxassislarini tayyorlash sohasidagi muammolarni bartaraf etish maqsadida "O'zbbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni 2025 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi qabul qilingan. Ushbu konsepsiyaga muvofiq "ilg'or xalqaro tajribani hisobga olgan holda sportchilar tayyorlash metodologiyasini takomillashtirish, sport turlari bo'yicha terma jamoalar tarkibini sifatli to'ldirish uchun sport zaxirasini shakllantirish va yuqori

[1] UNESCO. Quality physical education (QPE): Guidelines for Policy-makers. Paris: Unesco, 2015.

malakali sportchilarni tayyorlash jarayoniga innovatsion loyihalarni joriy etish”[2] masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga doir belgilab qo‘yilgan bunday vazifalar bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini tayyorlashning pedagogik tizimlarini ilg‘or tajribalar va innovatsion texnologiyalar asosida takomillashtirishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 24-mart kuni tasdiqlangan O‘RQ-1123-sonli “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbeksiton Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924 sonli “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2017 yil 27 iyuldagi PQ-3151-son “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2022-yil 3-noyabrdagi PQ-414-sonli “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamiz olimlaridan jismoniy tarbiya va sport turlarini o‘qitish masalalari bo‘yicha A.K.Eshtayev, M.S.Olimov, F.A.Kerimov, J.Eshnazarov, K.T.Shakirjonova, H.T.Rafiyev, N.T.To‘xtaboyev, M.N.Umarov, L.V.Shmiriygina, S.S.Xamroyev, F.Q.Ahmedov, Sh.O‘.Atamurodov kabilar tadqiqot ishlarini olib borganlar.

MDH mamlakatlari olimlaridan A.V.Butrameyev, A.I.Tabakov, N.M.Sokolova, O.I.Pavlova, E.F.Sabirova, V.V.Konovalov kabilar jismoniy tarbiya va sportni o‘qitish, yosh avlodning jismoniy tarbiyasi muammolari yuzasidan tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Xorijiy olimlardan Volfgang Killing, elke Barchat, xerbert Chzingon, Z.Vitkovki, V.Liach, G.Shmolinskiy kabilar tadqiqotlarida jismoniy tarbiya va sportni o‘qitish muammolari o‘z ifodasini topgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qarshi davlat

[2] Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва спортни 2025 йилгача ривожлантириш Концепцияси (ЎзР Президентининг 24.01.2020 й. ПФ-5924-сон Фармонига 1-илова) | NRM.uz

universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Yoshlarni umummilliy qadriyatlarimizga xos tarbiyasini shakllantirish texnologiyasi va metodikasini ishlab chiqish” amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi talabalarni jismoniy tarbiya darslarida o‘quvchilar harakatlarini modellashtirish orqali jismoniy tarbiya o‘qitishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

jismoniy tarbiya darslarini modellashtirishning nazariy aspektlari hamda jismoniy harakatlarni modellashtirish tamoyillarini aniqlashtirish;

talabalarini jismoniy harakatlarni modellashtirishga tayyorlash jarayonining takomillashtirilgan funksional modelini ishlab chiqish;

bo‘lajak o‘qituvchilarni jismoniy tarbiya darslarida harakatlarni modellashtirishga tayyorlash jarayonining pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish;

talabalarni jismoniy tarbiya darslarini modellashtirishga tayyorlash jarayonining funksional modeli hamda pedagogik mexanizmlarini amaliyotga tatbiq etish samaradorligini baholash mezonlariga muvofiqligiga ko‘ra aniqlashtrish.

Tadqiqotning obekti sifatida bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini jismoniy tarbiya darslarini modellashtirishga tayyorlash jarayoni tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini talabalarini jismoniy tarbiya darslarini modellashtirishga tayyorlash jarayonining pedagogik mexanizmlari, mazmuni, tashkiliy shakllari, metod va texnologiyalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy-metodik manbalarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatuv, umumlashtirish, test, diagnostik so‘rovnomalar, pedagogik eksperiment, matematik-statistik tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini modellashtirishga tayyorlashning nazariy-metodologik asoslari jismoniy harakatlarni modellashtirish jarayonining maqsadli-motivatsion, kognitiv, operatsion-faoliyatli, prognostik va refleksiv-korreksion komponentlar o‘zaro uzviyligini individual jismoniy imkoniyatlar va ta’limiy maqsadlar mutanosibligini ta’minlovchi individuallashtirish, variativlik, onglilik va faollik tamoyillari asosida aniqlashtirilgan;

talabalarini jismoniy tarbiya darslarini modellashtirishga tayyorlash jarayonining funksional modeli maqsad, metodologik, texnologik, diagnostik-natijaviy bloklari mazmuni o‘zaro bog‘liqlik asosida tarkiblashtirilib, jismoniy harakatlarning texnik-tarkibiy xususiyatlarini tahlil qilish, harakat dinamikasini prognostik baholash, modelni loyihalash va amaliyotda sinovdan o‘tkazish, diagnostika qilish hamda yefleksiv korreksiyalash mexanixmlarini intgratsiyalash orqali takomillashtirilgan;

bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini jismoniy harakatlarni modellashtirishga tayyorlashning pedagogik mexanizmlari o‘quvchilar harakat faoliyatini kognitiv-analitik tahlil qilish, konstruktiv modellashtirish, prognostik baholash, variativ moslashtirish, refleksiv-korreksion takomillashtirishning o‘zaro

uzviy mexanizmlarini modernizatsiyalash orqali kasbiy faoliyat indikatorlari sifatida takomillashtirilgan;

talabalarni jismoniy tarbiya darslarini modellashtirishga tayyorlash jarayonining takomillashtirilgan pedagogik mexanizmlari samaradorligi kognitiv (jismoniy harakatlar haqidagi bilim va tasavvurlar), prognostik (harakat dinamikasi va natijalarini oldindan baholash), diagnostik (harakat natijalarini tahliliy-diagnostik baholash) mezonlariga muvofiqligiga ko‘ra differensial baholash diagnostik tizimi asosida aniqlashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

talabalarni jismoniy tarbiya darslarini modellashtirishga tayyorlash jarayonining metodologik va pedagogik shart-sharoitlari asoslab berilgan;

jismoniy tarbiya darslarida modellashtirish usulidan foydalanishga tayyorlashga doir amaliy topshiriqlar tizimi ishlab chiqilgan;

jismoniy tarbiya darslarida futbolni o‘rgatish metodikasiga doir “Futbol nazariyasi va uslubiyati” deb nomlangan elektron ilova ishlab chiqilgan (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi intelektual mulk agentligining DGU №20514 raqamli guvohnomasi);

Jismoniy tarbiya darslarida harakatli modellashtirishga doir “Ommabop gimnastika” nomli uslubiy qo‘llanma (Qarshi DU o‘quv-slubiy kengashining 2025-yil 17-yanvardagi 5-sonli yig‘ilish qarori bilan tasdiqlangan) ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot muammosi, ya’ni modellashtirish va pedagogik modellashtirish muammosini o‘rganishga doir pedagogik yondashuv, tadqiqot maqsadi, predmeti hamda pedagogik vazifalar mohiyatiga muvofiq tadqiqot metodlarining tanlanganligi, tajriba-sinov ishlariga jalb etilgan talabalar sonining belgilangan talablarga mosligi, tajriba-sinov ishlari natijalarining statistik ma’lumotlarga asoslanganligi va matematik-statistik jihatdan qayta ishlanganligi, pedagogik tajriba-sinov ishlarida olingan ijobiy natijalarning vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanganligi, tahliliy materiallarning dissertatsiya mazmunini yoritishga imkon beradigan hajmda ekanligi, dissertatsiya mazmunining ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar hamda ilmiy anjumanlardagi ma’ruzalar orqali ommalashtirilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati modellashtirish, pedagogik modellashtirish hamda jismoniy tarbiya nazariyasiga pedagogik, psixologik va metodologik qarashlarning tahlil etilganligi, tahliliy ma’lumotlarning tizimlashtirilganligi hamda tizimlashtirilgan ma’lumotlardan ilmiy-pedagogik tadqiqotlarda foydalanish imkoniyatlari bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, tadqiqot davomida ishlab chiqilgan bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini o‘quvchilar jismoniy harakatlarini modellashtirishga tayyorlashga doir takomillashtirilgan model hamda pedagogik mexanizmlardan, ishlab chiqilgan amaliy topshiriqlar tizimidan oliy pedagogik ta’lim jarayonida jismoniy tarbiya o‘qitishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Talabalarni jismoniy tarbiya darslarini modellashtirishga tayyorlashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha tadqiqot natijalari asosida:

bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini modellashtirishga tayyorlashning nazariy-metodologik asoslari jismoniy harakatlarni modellashtirish jarayonining maqsadli-motivatsion, kognitiv, operatsion-faoliyatli, prognostik va refleksiv-korreksion komponentlar o‘zaro uzviyligini individual jismoniy imkoniyatlar va ta’limiy maqsadlar mutanosibligini ta’minlovchi individuallashtirish, variativlik, onglilik va faollik tamoyillari asosida aniqlashtirilganligiga oid xulosalardan “Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi” nomli o‘quv qo‘llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2022-yil 09-sentabdagi 302-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan. 302-0578-sonli nashr guvohnomasi). Natijada jismoniy tarbiya o‘qitish jarayoni nazariy asoslari jismoniy harakatlarni modellashtirishga doir tizimli ma’lumotlar bilan boyitilishiga xizmat qilgan;

talabalarini jismoniy tarbiya darslarini modellashtirishga tayyorlash jarayonining funksional modeli maqsad, metodologik, texnologik, diagnostik-natijaviy bloklari mazmuni o‘zaro bog‘liqlik asosida tarkiblashtirilib, jismoniy harakatlarning texnik-tarkibiy xususiyatlarini tahlil qilish, harakat dinamikasini prognostik baholash, modelni loyihalash va amaliyotda sinovdan o‘tkazish, diagnostika qilish hamda yefleksiv korreksiyalash mexaniзmlarini intgratsiyalash orqali takomillashtirilganligiga oid ma’lumotlardan AIF-2/17 “O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari o‘quv jarayonini tashkil etishda yangi texnologiyalar” mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (Qarshi davlat universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektorining 2026-yil 5-oktabrdagi 04/876-sonli ma’lumotnomasi). Natijada oliy ta’lim muassasalarida talabalarni yangi texnologiyalar asosida tayyorlash jarayoni takomillashuviga xizmat qilgan;

bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini jismoniy harakatlarni modellashtirishga tayyorlashning pedagogik mexanizmlari o‘quvchilar harakat faoliyatini kognitiv-analitik tahlil qilish, konstruktiv modellashtirish, prognostik baholash, variativ moslashtirish, refleksiv-korreksion takomillashtirishning o‘zaro uzviy mexanizmlarini modernizatsiyalash orqali kasbiy faoliyat indikatorlari sifatida takomillashtirilganligiga oid ma’lumotlardan AIF-2/17 “O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari o‘quv jarayonini tashkil etishda yangi texnologiyalar” mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (Qarshi davlat universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektorining 2026-yil 5-oktabrdagi 04/876-sonli ma’lumotnomasi). Natijada jismoniy tarbiya darslarini innovatsion asosda tashkil etilishiga doir metodik qarashlar tizimlashtirilishiga xizmat qilgan;

talabalarni jismoniy tarbiya darslarini modellashtirishga tayyorlash jarayonining takomillashtirilgan pedagogik mexanizmlari samaradorligi kognitiv (jismoniy harakatlar haqidagi bilim va tasavvurlar), prognostik (harakat dinamikasi va natijalarini oldindan baholash), diagnostik (harakat natijalarini tahliliy-diagnostik baholash) mezonlariga muvofiqligiga ko‘ra differensial baholash diagnostik tizimi asosida aniqlashtirilgan xulosalardan “Jismoniy tarbiya

nazariyasi va metodikasi” nomli o‘quv qo‘llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2022-yil 09-sentabdagi 302-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan. 302-0578-sonli nashr guvohnomasi). Natijada, jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonini amaliy-metodik tavsiyalar asosida takomillashuviga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 1 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazildi.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 11 ta ilmiy ish chop etilgan, shundan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 3 ta respublika va 2 ta xorijiy davlat jurnallarida nashr etilgan. 1 ta mualliflik guvohnomasi O‘zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligi tomonidan berilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 129 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati ochib berilgan, ularni amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va tuzilmasi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Talabalarni ta’lim-tarbiya jarayonidagi faoliyatlarni pedagogik modellashtirishga tayyorlashning nazariy asoslari”** deb nomlangan. Ushbu bobda modellashtirish va pedagogik modellashtirish muammosining nazariy aspektlari tahlil qilingan, talabalarni pedagogik ta’lim jarayonida jismoniy tarbiya darslarini modellashtirishga tayyorlash muammosi pedagogik nutqai nazardan o‘rganilgan hamda jismoniy tarbiya darslarini pedagogik modellashtirish jarayonining tamoyillari tahlil qilingan.

Model haqiqiy obyekt yoki vaziyatning muhim belgilarining soddalashtirilgan tasviri sifatida tavsiflanadi. Modelni yaratishda umuman modelga fundamental ta’sir ko‘rsatmaydigan ikkilamchi shartlar, xususiyatlar va miqdorlar chiqarib tashlanadi.

Modellashtirish-bu ma’lum bir jarayonning xususiyatlari va optimallashganlik darajalarini aniqlash hamda takomillashtirish uchun modellarni qurish, o‘rganish va ulardan foydalanish jarayonidir.

Jismoniy tarbiyadagi boshqaruv tizimi birinchi navbatda modellarning ishlashiga, shundan keyingina pedagogik ta’sirlarning "namunalari" ni amaliyotga o‘tkazishga asoslanadi.

Model obyekt haqida yangi ma’lumotlarni olish va uning funksional xususiyatlarini o‘rganish uchun original obyektining o‘rnini bosuvchi vosita sifatida ishlatiladi. Shunday qilib, insonning jismoniy holatini uning antropometrik ko‘rsatkichlari va yurak-qon tomir va nafas olish tizimlarining ko‘rsatkichlari

bo‘yicha o‘rganish dam olish va jismoniy faoliyat paytida uning morfofunksional holatining modelini yaratishga, keyin esa bu xususiyatlarni kutilgan qiymatlar modeli bilan solishtirishga imkon beradi. O‘qituvchilarning asosiy vazifalari ma’lum bir yosh va jins guruhlari uchun farqlarni topish va keyin bunday farqlarni bartaraf etishga qaratilgan pedagogik ta’sirlar modelini (o‘quv dasturi) yaratishdan iboratdir. Modellar bilan bunday operatsiyalardan so‘ng o‘qituvchi bevosita pedagogik jarayonni amalga oshirishi kerak.

Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini modellashtirish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

Jismoniy tarbiya darslarini modellashtirish;

O‘quvchilarni rivojlantiruvchi mashqlarni modellashtirish;

Harakatli o‘yinlarni modellashtirish;

Sport turlarida o‘quvchilarning harakatlarini modellashtirish.

Mazkur modellarni ishlashda qo‘llanilishiga ko‘ra quyidagi modellardan foydalaniladi:

Verbal modellar;

Grafik modellar;

Virtual modjellar;

Aralash turdagi modellar.

O‘quvchilar jismoniy harakatlarini modellashtirishdagi muhim sharti bu ularning harakat davomida qo‘llanilishidir. Jismoniy harakatlarga doir modellarni yaratish va qo‘llashdagi imkoniyatlar jismoniy tarbiya jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Ya’ni o‘quvchilarni harakatlarga o‘rgatish va ularda jismoniy ko‘rsatkichlarni rivojlantirish bilan belgilanadi.

Talabalani jimoniy tarbiya mashg‘ulolarini modellashtiishga o‘rgatish davomida quyidagilarga e’tibor qaratish muhim hisoblanadi:

- o‘quv jarayoni turli tuzilmaviy tuzilmalar qurilishini nazorat qilish va boshqarish uchun qo‘llaniladigan modellarni operatsion, joriy va bosqichma-bosqich vazifalar bilan bog‘lash;
- modelning detallashtirish darajasini aniqlash, ya’ni parametrlar soni, modelga kiritilgan, parametrlar o‘rtasidagi munosabatlarning tabiati;
- foydalanilgan modellarning amal qilish muddatini, ulardan foydalanish chegaralarini aniqlashtirish, qayta ko‘rib chiqish va almashtirish tartibini aniqlash;

Modellarni tavsiflashning turli usullari mavjud: og‘zaki, grafik, matematik, virtual.Jismoniy tarbiya va sport – har bir yosh inson kun tartibining doimiy tarkibiy qismi va butun umr davomida hamroh bo‘ladigan hayotiy faoliyat turidir. OTMdagi ta’lim jarayonlarida jismoniy tarbiya va sport shaxsni jismoniy va ma’naviy jihatdan kamol toptirishning ishonchli amaliy vositasi hamdir. Shuningdek, mazkur vosita orqali shaxsning intellektual va estetik tarbiyasi takomillashib, fuqarolik pozitsiyasi va vatanparvarlik tuyg‘ulari ravnaq topadi hamda bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy pozitsiyasi mustahkamlanadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘quvchilarning jismoniy tarbiya va sport faoliyatini tashkil etish bo‘yicha ko‘nikma va mahoratlarining shakllanishi:

-talabalarda jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishga qat’iy

ishtiyoqning paydo bo‘lishi va rivojlanishi jarayonida;

-jismoniy tarbiya va sport faoliyati bilan shug‘ullanishga kuchli motivatsiya uyg‘otganda;

-jismoniy tarbiya va sport sohasida nazariy bilimlarning shakllanish jarayonida;

-jismoniy tarbiya va sport, sog‘lomlashtiruvchi tadbirlarni tashkil etish hamda o‘tkazish mahorati va ko‘nikmalarini o‘zlashtirish davomida;

-sport musobaqalarida qatnashish asnosida;

-sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishga qaratilgan tadbirlar kabi jarayonlarda sodir bo‘ladi.

Jismoniy tarbiya va sport faoliyati modeli (uning “subyekt-obyekt-refleksiya-natija” sxemasi bo‘yicha davriy kechishi va natijada “pedagogik tayyorlashning sifati” kafolatlanishi) ko‘plab pedagogika yo‘nalishidagi OTMlarning o‘quv jarayonlarida qo‘llaniladi.

Ta’limni yangi sharoitlarda rivojlantirish konsepsiyasini o‘rganib chiqar ekan, A.M. Novikov, uzluksiz ta’limni takomillashtirish quyidagi tamoyillar asosida olib borilishini ta’kidlaydi:

-ta’limning negizli (ya’ni asos bo‘luvchi bazaga ega) ekanligi;

-ta’lim dasturlarining ko‘pdarajali (o‘qitishda ko‘plab darajalar va o‘ziga xos zinalarning mavjud) bo‘lishi;

-negizli va diplomdan keyingi ta’limning davomliligi (“oldinga intiluvchi vektor”;

-ta’lim dasturlarining manevrliligi (insonning ta’lim makonidagi gorizontal harakati): ya’ni ta’lim asnosida qo‘shimcha ta’lim olish yoki faoliyat sohasini o‘zgartirish;

-ta’lim tuzilmalarining integratsiyasi;

-ta’lim shakllarining moslashuvchanligi [103].

Mazkur tamoyillarni mavjud sharoitlarga moslashtirgan holda biz pedagogika yo‘nalishidagi OTMda jismoniy tarbiya va sport faoliyati modelini qurish uchun asos sifatida qabul qildik.

Jismoniy madaniyat bo‘lajak pedagog madaniyatini hosil qiluvchi o‘ziga xos, bir qadar mustaqil madaniyat turi sifatida bir qator iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-axloqiy shartlar va obyektiv talablar asnosida mavjud bo‘ladi. YA’ni bo‘lajak o‘qituvchining:

-ma’naviy-axloqiy ravnaq va mustahkam salomatlikka egaligi;

-mo‘tadil jismoniy rivojlanganligi;

-ma’lum talablar asosidagi konditsion va muvofiqlashgan harakatlarni amalga oshirish qobiliyatiga egaligi;

-hayotiy muhim harakatlarni amalga oshirish ko‘nikma va mahoratlarini egallaganligi;

-jismoniy tarbiya va sport sohasida zarur darajada bilimlarni o‘zlashtirganligi;

-o‘zida jismoniy mashqlar bilan mustaqil shug‘ullanish ehtiyoji va mahoratlarini tarbiyalaganligi;

-jismoniy tarbiya va sportning faol dam olish, tanani chiniqtirish, ijodga

rag‘batlantirish, ishchanlikni oshirish, irodani mustahkamlash, ruhiy ko‘tarinkilikni oshirishning muhim vositasi ekanligini ongli ravishda idrok etishi uning tom ma’noda jismoniy madaniyatga ega bo‘lganligini anglatadi.

Dissertatsiyaning “Pedagogik ta’lim jarayonida talabalarni jismoniy harakatlarni modellashtirishga tayyorlash mazmuni” deb nomlangan ikkinchi bobida talabalarni jismoniy tarbiya darslarini modellashtirishga tayyorlashning takomillashtirilgan funksional modeli taqdim etilgan, ushbu jarayonning tashkiliy shakllari tahlil qilingan hamda talabalarni jismoniy harakatlarni modellashtirishga tayyorlashga doir topshiriqlar tizimi, pedagogik shartlari ishlab chiqilgan.

Talabalarni pedagogik faoliyatlari davomida o‘quvchilar jismoniy faoliyatlarini modellashtirishga tayyorlash jarayonini tadqiq etish davomida funksional modellashtirish usulidan foydalanildi.

Modelimiz 4 blokdan iborat: maqsad bloki; metodologik blok; texnologik blok; diagnostik-natijaviy blok.



Talabalarni jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida o‘quvchilar harakatlarini modellashtirishga o‘rgatishda quyidagi **tashkiliy shakllardan** foydalaniladi:

Nazariy tayyorgarlik bosqichida – integratsiyalashgan mashg‘ulotlar; binar mashg‘ulotlar.

Metodik tayyorgarlik bosqichida – harakatli o‘yinlardan foydalanishga tayyorlash; AKTdan foydalanishga tayyorlash; malabalarni psixologik, pedagogik va metodik tayyorgarligini modellashtirish.

Amaliy bosqichda – pedagogik amaliyot, talabalarni o‘quvchilar faoliyatlarini modellashtirishga tayyorlash.

Talabalarni jismoniy harakatlarni modellashtirishga o‘rgatish jarayonini uchta yo‘nalishda amalga oshirish maqsadga muvofiq deb topildi. Jumladan:

Jismoniy rivojlantiruvchi mashqlarni modellashtirish – jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida o‘quvchilar amalga oshirishi uchun mo‘ljallangan umumiy

rivojlantiruvchi mashqlarni dars davomida qo‘llash jarayonini modellashtirishga qaratiladi.

Milliy harakatli o‘yinlarni modellashtirish – umumiy o‘rta ta’lim o‘quv dasturiga kiritilgan milliy harakatli o‘yinlarni o‘quvchilarga o‘rgatish uchun qulaylik yaratish maqsadida har bir ishtirokchi harakatini modellashtirishga yo‘naltiriladi.

Sport o‘yinlaridagi harakatlarni modellashtirish – talabalarni jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari davomida qo‘llaniladigan sport turlarida o‘yinchilar harakatlarini modellashtirishga o‘rgatish nazarda tutiladi.

Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida o‘quvchilar harakatlarini modellashtirishda quyidagi modellashtirish turlaridan foydalaniladi:

Verbal modellashtirishda jismoniy rivojlantiruvchi mashqlar, sport o‘yinlari yoki milliy harakatli o‘yinlarda ishtirokchilarning harakatlari dinamikasi, o‘zaro hamkorlikda ishlashi yoki boshqa harakatlar ketma-ketligi so‘zlar orqali ifodalanadi.

Grafik modellashtirishda talabalar o‘quvchilarning jismoniy tarbiya mashg‘ulotlaridagi har bir topshiriqni bajarishdagi harakatlarini chizmalar orqali modellashtirishni o‘rganadilar.

Virtual modellashtirishda talabalar jismoniy harakatlarni modellashtirishda axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan keng foydalanadilar. Ushbu modellashtirish turi murakkab bo‘lishiga qaramasdan qo‘llanilishi va o‘quvchilarni jismoniy mashqlarga o‘rgatishi nuqtai nazaridan juda samarador usul hisoblanadi.

O‘quvchilarni jismoniy faoliyatga tayyorlash jarayonini modellashtirish bir necha bosqichlarda amalga oshiriladi:

- 1-bosqich: vaziyatni tahlil qilish, maqsadni aniqlash va vazifalarni belgilab olish bosqichi.
- 2-bosqich: ta’lim subyektlari faoliyatlari yo‘nalishlari va bajarishi lozim bo‘lgan vazifalari doirasini belgilab olish.
- 3-bosqich: ta’lim jarayonini tashkil etish uchun zarur bo‘lgan ta’lim metodlari, texnologiyalari, vositalarini aniqlashtirish;
- 4-bosqich: Ta’lim jarayoni ishtirokchilari faoliyatlari, maqsad va vaqt imkoniyatlarini muvofiqlashtirib chiqish;
- 5-bosqich: dars loyihasini ishlab chiqish;
- 6-bosqich: loyihani amalga oshirish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan turli xavflar oldini olishga doir chora-tadbirlarni belgilab olish.

O‘qituvchilarni o‘quvchilar faoliyatlarini konstruktiv tashkil etishdagi muvaffaqiyatlari asosan ularning o‘z faoliyatlari va o‘quvchilar psixologik-pedagogik imkoniyatlarini chuqur hamda batafsil tahlil qila bilishlariga bog‘liq hisoblanadi. Konstruktiv tashkil etilgan pedagog faoliyatining muhim jihatlaridan yana biri ushbu jarayonda o‘quvchilar faoliyatlaridagi kamchiliklar va ularning sabablari aniqlashtirib boriladi.

Jismoniy tarbiya o‘qituvchilari o‘quvchilar faoliyatlarini samarali tashkil etishlari ushbu predmetga nisbatan qiziqishni oshiradi o‘quvchilarning faol ishtiroklarini ta’minlashga xizmat qiladi.

Jismoniy tarbiya darslarini qiziqarli tashkil etish va motivatsiya hosil qilish avvalambor bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilari tayyorgarligida bir qancha usullardan foydalanilishi muhimdir. Masalan:

- Interatsiyalashgan mashg‘ulotlar tashkil etish;
- Binar mashg‘ulotlar o‘tkazish;
- Harakatli o‘yinlardan foydalanishga tayyorlash;
- Axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish;
- Pedagogik amaliyot jarayonini samarali tashkil etish;
- Bo‘lajak o‘qituvchilar pedagogik, psixologik va jismoniy tayyorgarligini modellashtirish;
- Talabalarni o‘quvchilar faoliyatlarini modellashtirishga tayyorlash.

Topshiriqlarni quyidagicha guruhlarga ajratgan holda ishlab chiqishga harakat qildik:

1-guruh:	• Motivatsion-yo'naltiruvchi topshiriqlar
2-guruh:	• Kognitiv-tahliliy topshiriqlar
3-guruh:	• Konstruktiv-loyihalash topshiriqlari
4-guruh:	• Jismoniy mashqlarni modellashtirish topshiriqlari
5-guruh:	• Variativ topshiriqlar.
6-guruh:	• Muammoli topshiriqlar
7-guruh:	• Amaliy-proyektiv topshiriqlar
8-guruh:	• Refleksiv-diagnostik topshiriqlar.

Nazariy tayyorgarlik bosqichida quyidagi turdagi topshiriqlar tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. Motivatsion-yo‘naltiruvchi topshiriqlar:
2. Kognitiv topshiriqlar:

Metodik tayyorgarlik bosqichida quyidagi topshiriqlar guruhidan foydalanilnish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. Konstruktiv loyihalash topshiriqlari:
2. Verbal modellashtirish.
3. Grafik modellashtirish.
4. Virtual modellashtirish.

Amaliy tayyorgarlik bosqichida quyidagi turdagi topshiriqlardan foydalanish mumkin bo‘ladi:

1. Jismoniy mashqlarni loyihalashga doir topshiriqlar:
2. Milliy harakatli o‘yinlarni modellashtirish:
3. Sport o‘yinlaridagi harakatlarni modellashtirish:

Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini jismoniy harakatlarni modellashtirishga tayyorlash jarayonining samaradorligi quyidagi pedagogik shart-sharoitlarga bog‘liq:

1. Jismoniy tarbiya metodikasi mashg‘ulotlarining motivatsion yo‘naltirilganligini ta’minlash lozim.
2. Topshiriqlar mazmunini bosqichma-bosqich murakkablashib borishini ta’minlash.

3. Jismoniy tarbiya metodikasi fanini o‘qitish davomida nazariya, metodika va amaliyot integratsiyasini ta’minlash.

4. Modellashtirish faoliyatini kasbiy-pedagogik vazifalar iblan integratsiyalash.

5. Variativ va individuallashtirilgan ta’lim muhitini yaratish.

6. Verbal, grafik va virtual modellashtirish usullarining integratsiyasini ta’minlash.

7. Muammoli va interaktiv ta’lim texnologiyalaridan foydalanish.

8. Topshiriqlarni bajarish davomida talabalar mustaqil va ijodiy faoliyatini rag‘batlantirish.

9. Topshiriqlarni bajarish yakunida refleksiv baholash va qayta aloqani tashkil etish.

Ushbu topshiriqlardan namuna keltiramiz. ***Jismoniy mashqlarning funksional modelini ishlab chiqish topshirig‘i.***

Topshiriqning maqsadi – talabalardajismoniy harakatlarni tizimli-funksional pedagogik modelini ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Topshiriqning bajarilishi:

1-bosqich: talabalar jismoniy mashqni tanlaydilar va uning smaqsadini aniqlashtirib oladilar.

2-bosqich: mashqni bajarishdagi pedagogik vazifalar belgilab olinadi.

3-bosqich: mashq mazmuni ishlab chiqiladi.

4-bosqich: mashqdagi jismoniy harakatlar komponentlari ajratib olinadi.

5-bosqich: jismoniy mashqni bajarish algoritmi ishlab chiqiladi.

6-bosqich: mashqni bajarishdagi yuklama parametrlari belgilab olinadi.

7-bosqich: jismoniy mashq bajarilishini monitoring qilish mezonlari aniqlashtiriladi.

8-bosqich: mashqni bajarishdan kutiladigan natija prognoz qilinadi.

Topshiriqni bajarish davomida talabalarda jismoniy mashqlarni pedagogik modellashtirish ko‘nikmalari rivojlantiriladi.

Navbatdagi topshiriq ***jismoniy harakatlarni grafik modellashtirish topshirig‘i.***

Topshiriqning maqsadi – talabalarda jismoniy mashqlar, sport o‘yinlarini vizual-grafik modellar asosida ifodalash, jismoniy harakatlar trayektoriyasini grafik modelini ishlab chiqish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Topshiriqning bajarilishi:

1-bosqich: talabalar ixtiyoriy ravishda jismoniy harakatlar, milliy o‘yinlar yoki sport o‘yinlarini tanlab oladilar.

2-bosqich: jismoniy harakatlarning amalga oshirishdagi fiziologik, jismoniy va pedagogik shartlarni aniqlashtiradilar.

3-bosqich: mashq bajaruvchilar joylashuvi, soni belgilab olinadi.

4-bosqich: ishtirokchilar harakatlar trayektoriyasi belgilab olinadi.

5-bosqich: asosiy obyektlar grafik belgilari tanlab olinadi.

6-bosqich: ishtirokchilar harakat yo‘nalishlari yo‘naltiruvchi chiziqlar bilan ko‘rsatiladi.

7-bosqich: jismoniy harakatlar boshlanishi – start nuqtasi hamda yakunlash – finish nuqtasi belgilab ko‘rsatiladi.

8-bosqich: har bir grafik modelga metodik talablar va shartlar kiritib o‘tiladi.

Topshiriqni bajarish davomida talabalarga namuna tarzida quyidagi grafik modellarni ko‘rsatib o‘tish mumkin.



3-rasm. Jismoniy rivojlantiruvchi mashqlarning grafik modeli

Mazkur metodikadan foydalanishda yuqorida keltirib o‘tilgan pedagogik shartlarga amal qilib borish talab etiladi.

Natijada, talabalarda kelajakdagi faoliyatlari davomida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida amalga oshiriladigan jismoniy mashqlarni, milliy va sport o‘yinlarini maqsadga muvofiq tahlil qilish, konstruksiyalash, loyihalash, variatsiyalash, funksional modellashtiri hamda ushbu modellardani amaliyotga tatbiq eta olish ko‘nikmalarini qamrab olgan integrativ kasbiy kompetensiyalar shakllantiriladi.

“Tajriba-sinov ishlari samaradorligi” deb nomlangan uchinchi bobda tadqiqot muammosiga doir olib borilgan pedagogik eksperiment o‘z ifodasini topgan.

Talabalarni jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari davomida jismoniy mashqlar va harakatlarni modellashtirishga tayyorlashga doir olib borilgan pedagogik eksperiment 2023-2026-yillar davomida uch bosqichda amalga oshirildi.

